

O’TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” NOMLI ASARIDAGI URUSH VOQEALARI VA UNDAGI AYANCHLI TAQDIRLAR

Musayeva Diyora Xolmamatovna

Namangan davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya.: Ushbu maqola O’tkir Hoshimovning „Ikki eshik orasi“ nomli kitobidagi urush voqealarini tahlil qiladi va urush oqibatidan jabr chekkan ko’plab insonlar hayotini muhokama qiladi. Shunday qilib, bu asar insoniyat tarixidagi eng daxshatli, fojeali bo’lgan urush yillari va jarayonlarining dalillaridan biridir.

Kalit so’zlar: Urush, dard, qora xat, zahar.

Аннотация.: В данной статье анализируются события книги Между двумя дверей Уткира Гашимова и рассматриваются жизни людей пострадавших от войны Таким образом это произведение является свидетельством самых страшных и трагических военных лет и процессов в истории человечества.

Ключевые слова.: Война, боль, черное письмо, яд.

Annotatin: This article is to analyzed war’s events in the books of “Ikki eshik Orasi” of O’tkir Hoshimov and it is discussed peoples life that are suffer in the result of war. So this story is one of the facts of very horrible war years and events in the history of mankind.

Key words: war ,pain,black latter,poison.

Aziz do’stlar!

”Barchamizga ayonki, el-yurtimiz asrlar davomida ozod va erkin hayotni, adolatli jamiyatni orzu qilib yashadi. Bu muqaddas maqsad yo’lida jon olib, jon berib kurashdi va mashaqqatli sinovlarni mardona yengib o’tti.

Xalqimiz qalbidagi hurriyat sari ezgu intilishni hech qanday bosqin, zulm-zo’ravonliklar yo’qota olmadi. Bunga ko’hna tariximizning o’zi guvoh.”[1]

SHAVKAT MIRZIYOYEV.

Mana necha yillardirki, xalqimiz tinchlik degan ne’mat orqali huzur-halovatda kelishmoqda. Ammo urush yillarichi? Urush yillarida odamlar qanday yashashdi ekan. Ular tinchlik kunlarini kutib yashashdi. Mana shunday voqealar Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida, O’tkir Hoshimovning ”Urushning so’ngi qurboni”, va qolaversa,”Ikki eshik orasi”kabi asarlarda keltirib o’yilgan. Ayniqsa,”Ikki eshik orasi”dagi urush voqealari va insonlar taqdiri hali hanuz kitobxonlarni o’ziga tortib kelmoqda.

O'tkir Hoshimov asarida turli xil taqdir egalarinining hayotini ayanchli holda aks ettirgan. Ijodkor "Qora amma" obrazi orqali barchamizga o'z onalarimizni eslatib qo'ygan. "Qora amma" timsolida biz yana bardoshli, sabr-toqatli ayol va ona timsolini ko'rishimiz mumkin. Asarda Muzaffar "Qora ammasi haqida shunday xayol qilardi: "Qiziq, xuddi ichiga mitti odamchalar kirib olgan-u ha deb hushtak chalayotgandek. Bazan "hushtak" shunaqangi kuchayib ketadiki, o'zimning ham nafasim bo'g'ilib qolayotganga o'xshaydi. [2]

Sizningcha, aziz kitobxon, bu "hushtak" nima edi.

U "hushtak" HAYQIRAYOTGAN DARDga o'xshardi g'oyo. Bu tovush bir mushfiq onaning farzand dog'ida chekayotgan azobi va alamlari edi. Bu azob-u qiynoqlarga sababchi birgina so'z bilan ifodalanadigan narsa "URUSH" edi. Shu birgina so'zdan hamma qo'rqadi. Nimaga deysizmi? Chunki shu birgina so'z, nurli hayotimizni jaholatga yuzlatdi. Shu birgina so'z, qanchadan-qancha bolalarni yetim qoldirdi. Shu birgina so'z, beozor, mushtipar onalarimizning ichida DARD (hushtak chalindi) ni yondirdi (Qora amma). Shu birgina so'z, qanchadan-qancha suluv qizlarni suygan yoridan ayirdi (Robiya). Men bu urushning to'rtga yaqin keltiradigan falokatlarini yozib o'tgandirman, ammo siz-u bizga a'yonki, bu so'zning yana qancha malomatlari borligi. "Qora amma ham urush sozini eshitganda xuddi shunday qo'qqan.

Bundan tashqari "Qora amma" ning dardidan yaralgan qo'shig'iga bir e'tibor beraylik.

"Dukur-dukur ot keldi.

Ot boshida xat keldi.

Xatini o'qib ko'rsam,

Voy-voy bilan dod keldi. [3]

"Qora amma" ning qo'shig'idagi "voy-voy" bilan "dod" so'zlaridan siz hamma narsani anglab olgandirsiz. "Ikki eshik orasi" ni o'qigan kitobxon, onaning bunday so'zlariga allaqachon tushinib olgan. Shu bir parchagina qora xat onaning boshiga bir qancha, ya'ni, "Qora amma" ning boshiga bir qancha "dard" bo'lib yo'giladi. O'zi bilan birga voy-voy bilan dodni olib keladi. Va farzand dog'iga chidolmagan ona bolasining o'limiga ishonmay o'g'li Kimsanjonni o'lgunicha kutadi. Ox, bechoragina ona-ya, dardi falakka tutash bo'lgan onam-a! Dard-u alamlarning qirov tushgan sochingning tolasidan ham ko'p edi. Hatto hech kim bilmaydigan darajada. Bu azob-u alamlarning ortida ham "urush" deb ataluvchi jirkanch voqea turar edi. Bu badbaxt urush kichkina Robiya hayotida ham chuqur izlarni, bitmas yaralarni qoldirdi. Kichikni kichkinaku demadi, barchaga birdek sovuq nafasini uchiraverdi. Avvaliga Robiya onasidan ayrildi, yosh bolalagi uchunmi tezda ko'nikib ketadi bechora. Keyin Robiya otasi bilan Toshkentga yo'l oladi. Yo'lda Robiyaning zinada yotgan bir ayolga ko'zi tushadi. "Dada! Anavi semiz xotin nimaga uxlab yotibdi". [4] deganida "semiz emas, shishib ketgan qarama, Robiyajon" deydi dadasi. Lekin asarni o'qiyotganimizda u

ayolning nimaga shishib ketganligi berilmagan. Sababi, o'sha paytlar ocharchilik payti bo'lganligi uchun ko'plab insonlar shunga o'xshash voqeaning qurboniga aylanishadi. Insonlarning non qilib yeyishga bug'doyi bo'lmaganligi sababli arpa va makkadan non qilib yeyishga majbur bo'lishgan. Natijada esa mana shunday voqealar sodir bo'lgan. Bunday holatlarni biz yana bir bor Robiya dadasiga non-non deya yalinganida dadasi tomonidan aytilgan "oltin-kumush kul bo'lgan arpa-bug'doy kul bo'lgan"[5] kabi so'zlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Mana yana bir bor iblis urushning odamlarga yetkazgan jaxolati.

Shu o'rinda ijodkor asarida insonlarning qaysidir ma'noda soda va go'l kabi qiyofalarini "Robiya" va "Duma" timsollari orqali tasvirlab bergan. Masalan, "Duma" Oqsoqol aytgan oddiy "pajalista" so'ziga tushinmay, bir hafta Oqsoqoldan arazlab yurishi kulgili tuyulishi turgan gap. Yo bo'lmasa "Duma"ning "Duma" degan laqabni olishiga ham savodsizligi va soddaligi sababchi emasmi. Soddalik va go'llik ham savodsizlikdan paydo bo'ladi, albatta. "Duma"ning bunday kulgili ahvolda qolishiga o'sha zamon tuzumlari, davlat tepasidagi rahbarlar ham sababchidir. Chunki, o'sha paytlarda maktablar unchalik yo'lga qo'yilmagan. Mana endi "Duma"ning nimaga savodsiz va soda bo'lib qolganligini bilib oldik. To'g'ri, "Duma" mehnatkash, jonkuyar dehqon bo'lishi mumkin, lekin, savodsizligi tufayli kulgu ostida qoladi. O'sha payt tuzumlarining yaxshi emasligiga yana bitta oddiygina voqeani ham keltirib o'tgan ijodkor. Barcha kitobxonlarga ma'lumki, Robiyaning dadasi muallim bo'lgan. U Toshkentta bolalarning savodli, bilimli bo'lishi uchun maktab ochishga harakat qiladi. Bundan xabar topgan davlat tepasidagilar va dushmanlari maktabni yoqtirib uni bir kechada olib ketishadi. Mana yana bir bor o'sha davlat tuzumining insonlar hayotini og'irlashtiradigan xavfli tuzumi. To'g'ri maktablar bo'lgandir, ammo juda kam. Maktablar bo'lganligi bilan bolalar savodsizligicha qolib ketaverishgan. Sababi yoshgina bolalarni ham kattalar singari qora mehnatga solishgani solishgan edi. Asarda shunga o'xshash xolatni biz yana Robiyaning hayotida ham kuzatishimiz mumkin. Kimsan, otasi, onasi Robiya uzumzorda uzum yulayotgan paytni bir eslang. Urush haqida xabar kelganida "Qora amma" boshini ushlagancha yerga cho'kkalab qoladi. Xammaning dilida vaxima bo'lsa Robiyaning xayolida esa "urush boshlansa nima bo'пти? O'zi anchadan buyon "urush-urush" degan gaplar yurardi-ku!"[6] degan o'ylar o'tadi. Urushning qanchalik daxshatli ekanligini Robiya, "Qora amma"ning dod-faryodidan keyingina tushinib yetadi.

Ey badbaxt urush!

Sen tufayli ota bolasidan, bola otasidan ayrildi.

Sen tufayli, mushtipar onalar yana bir jonidan (farzandidan) ayrildi.

Sen tufayli sevgisiga zor bo'lganlar (Robiya), sevgisini xor qilganlar (Ra'no) ham bo'ldi.

Eng yomoni shundaki, o'sha Shomurodning xotini Ra'no, o'z farzandini daraxtzorga tashlab, "odam qiyofasidagi shayton" bilan Qo'qonga qochib ketadi. Bunday xiyonatlarga Shomurod ancha vaqt chidolmaydi. Bolasini daraxtzordan topib olgan ota, uning qornini to'yg'izish uchun ancha vaqt qiynalib yuradi. Axiri, Oqsoqol buva yordamida narigi qishloqdagi emizikli bir ayolning uyiga borib, bolaning qornini to'yg'izib kelishadi. Shunday qilib bu asarda hali aytganimdek har bir insonning taqdiri ayanchli aks ettirilgan. E'tibor beradigan bo'lsak, Muzaffar go'dakligidanoq taqdir sinovida qoladi. Bu sinovlar hali u ko'radigan azoblar oldida hech nima emas edi. Chunki, suygan yori o'zining singlisi ekanligini bilish, u uchun, Muzaffar uchun eng og'riqli azob emasmi? Biz bunday vaziyatga shunday nom berishimiz mumkin. "Kattalar qilgan xato, (Ra'no) kichiklar ko'rgan jafo (Muzaffar va Munavvar). Ra'noning xatosi tufayli o'g'li Muzaffar ayanchli taqdirga duchor bo'ladi. Munavvarning hayoti esa o'lim bilan yakunlanadi. Bu voqealar bo'lganiga 20 yillar bo'lgan bo'lsa-da, hamonki urush insonlar hayotiga hech qanday tig'siz, qurol yarog'siz og'riqli azoblarni beryotgan edi. Urush bo'lmaganda, balki, xiyonatlar ham sodir bo'lmasmidi, (Ra'no) Urush bo'lmaganda, balki, endi hayotga qadam qo'yayotganlar, umr yo'llarida qoqilmasmidi (Muzaffar va Munavvar). Urush bo'lmaganda, balki, ota-bobolarimiz ham xutti bizlarga o'xshab hayot lazzatidan bahramand bo'larmidi. Afsuski, bunday lazzatdan juda jo'p insonlarga nasib qilmadi. Ular bizni deb, bizlarni deb o'z hayot lazzatlaridan voz kechishdi. (Kimsan va urushda ishtirok etganlar). Shulardan biri "Ikki eshik orasi" dagi Kimsanjon va shunga o'xshash qahramonlardir. Ular Vatani uchun nafaqat vatani, balki, otasi, onasi, suygan yori, qolaversa, butun xalqi uchun uzoq yurtlarda qon kechishdi. Hayoti evaziga Kimsanjon qatori qanchadan-qancha o'g'lonlar o'z vatanlarini yovdan qutqarib qoldilar. Ammo farzandlarini kuta-kuta umri o'tgan onalarchi?, ularga joni achiydigan jigarlarichi?, butun kun suygan yori yo'llarida ko'z yoshlari ila yostiqlari xo'l bolgan juvonlarchi? Ayniqsa, farzantlarining bevaqt o'limi mushtipar onalarni yeb bitirgan edi. Bechora onalar! Bolasini ajalning og'ziga jo'natgan kuniyoq o'zining o'limiga rozi bo'lib ketgandir. Asarda faqatgina urush qahramonlarigina qahramon emas, balki, o'sha vatan qahramonini tarbiyalagan, katta qilgan, uni to'qqiz oy qornida ko'tarib, oq sut berib, ne-ne azoblarda ulg'aytirgan, vatan qahramonidek qahramonlarni dunyoga keltirgan onalar ham QAHRAMONDIRLAR. Ular haqiqatan ham mana shunday maqtovlarga loyiq zotlardir. Chunki, jonidan ortiq ko'rgan dilbandini urushga, hayot qaytishidan ko'ra o'limi aniqligini bilib jo'natish ham katta matonat va kuch bilan tengdir. Ammo, qanchalik matonatli, bardoshli bo'lishiga qaramay ularning ichida "hushtak" (dard) chalimaveradi. O'zidan oldin bolasining o'limini eshitish naqadar og'irligni boshidan o'tganlarga tushinishadi. Axir aytishadi-ku "ota-onam demoqlik omonatdir, bolam demoqlik qiyomatdir". Xa ular uchun farzandidan qora xat kelishi va uning o'limini eshitish "qiyomat" edi. O'tkir Hoshimov mana shunday qiyomatlik

kunlarni “Qora amma” o’g’li Kimsanjondan qora xat kelishi va Orif oqsoqolning ikkala o’g’li ham urushdan qaytmasligi orqali tasvirlab bergan.

Qaniydi, bu urush ona qalbining to’ridagi nidolarni eshitganda edi! Balki, dunyoda urush bo’lmasmidi? Aslida urushda nima ayb? Ayb urushda emas, urushni boshlab bergan qabih insonlardadir. Bu so’zdan hammaning qo’rqishiga sababchi bo’lgan yovuz yovlarda emasmi? Yo bo’lmasa “Qora amma” kabi onalarning qalbiga isyon ko’targanlarda emasmi? O’zbek xalqi shunchalik mexribon, bag’ri keng xalqi, hattoki dushmanlarining bolasiga ham o’z uyidan joy berdi. (Shomurodovlar oilasi) Ammo fashist xalqi nima qildi? Kimsanning dushman qo’liga asir tushgan paytlarni bir eslang. O’sha yerda fashistlar qo’liga asir tushgan bir ayol va qizchasi ham bor edi. Onani bolasidan ayirib, sovuq muzda qiynab o’ldirishi, lekin ona qizchasidan ayrilgisi kelmay, bu duyodan ketishni xoxlamasdi, garchi u sovuq muz ichida tursa ham. Balki, olloh ham bir mushtipar onani dilbandidan ayrilishini xoxlamagandir. Ammo iblis yovning shu ish bilan ko’ngi joyiga tushar edi. Ular shundan, bolaning ko’z o’ngida onani muzga tiqib o’ldirishdan zavq olardi. O’z askarlarini davolash uchun ona qalbiga isyon ko’tarishdi iblis fashistlar. Asarda Kimsan ham xutti shunday o’lim topadi. Ijodkor shu yo’sinda fashist millatining qanchalik yaxshilikka qo’l urganini ochiq-oydin ko’rsatib beradi. Bundan tashqari, ijodkor uchun ona va bola ayrilig’ini tasvirlab berish eng og’ir holat bo’lganligi aniqdir. Chunki ijodkor o’sha voqeani tasvirlayotganida uning naq ichida bo’ladi, qahramoni kulsa kuladi, yig’lasa yig’laydi, o’lsa o’ladi. Balki, O’tkir Hoshimov shu kabi voqealarni yozyotganida qalami bilan emas, ko’z yoshi, siniq ko’ngli, yarador yuragi bilan yozgandir. Sababi, har bir ijodkor uchun asaridagi qahramoni o’z farzandi kabidir. Qolaversa, ijodkor asariga haqiqatni singdirib yuborgan ijodkor edi. Buni ijodkorning o’zi ham asarida isbotlab bergan: “Bu kitobdagi ko’p odamlarni o’zim ko’rganman. Ko’plari bilan gaplashganman. Bazilarining o’zi bilan, bazilarining... ruxi bilan... Bazilari nimani gapirgan bo’lsa, shuni qog’ozga tushirdim, bazilari esa nima gapirgani emas, nimani o’ylaganini yozishga majbur bo’ldim” [7]. Shu o’rinda O’tkir Hoshimov haqida xalqimizning zabardast yozuvchisi Said Ahmad shunday degan: “O’tkir Hoshimov xalqimizning fidoyi, ROSTGO’Y yozuvchisi sifatida hamisha o’z mavzusi bo’lib kelgan xalq hayotini uzluksiz kuzatadi va undan aytish nihoyatta zarur nuqtalarini qalamga oladi”. [8] Rostan ham adib “Ikki eshik orasi” da xalq hayotidagi qiyinchiliklarni, ularning urushdan keyin keladigan yorug’ kunlarga ishonchini haqiqat bilan qalamga oldi. Asarda har bir tirik jon hayot qiyinchiliklari bilan yuzlashdi, hayot sinovlariga duchor bo’ldi. Xamma erkakalar urushga ori uchun, yori uchun, bori uchun ketganida, ayollar ham uylarida jim o’tirishmadi. Barcha ro’zg’or yuklarini bo’yinlariga olishdi. Ertani erta demay, kechni kech demadi. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demay, dala-yu dashttan rizqlarini terishdi. Bundan tashqari frony ortida jang qilayotgan yaqinlari uchun ham rizq-nasiba ulashib turishdi. Ayol boshi bilan

yelkasiga ketmon ko'tardi va ayol matonati naqadar kuchli ekanligini madh etti. Ammo ayollarchalik matonatga ega bo'lmagan erkaklar ham yo'q emas edi asarda. Shulardan biri: Umar zakunchi edi. Uning tekkan foydasi shu bo'ldiki, xamma urushda jon olib, jon berib yurgan bir paytta Shomurodning xotini Ranoni yo'dan urdi, keyin Robiyaga ham tajavvuz qilmoqchi bo'ladi. Bunday ishlari yetmaganday xalqqa ko'p azoblar berdi. Katta-yu kichikni birdek qiynadi. Umar zakunchi bilan Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi Tursunboy obrazlarida o'xshashlikni kuzatishimiz mumkin. “Ufq”da Tursunboy urushdan qochib, ota-onasining yuzini yerga qaratadi, ularni qiynaydi. O'tkir Hoshimovning bu asarida esa Umar zakunchi ota-onalarni ham katta-yu kichikni va butun xalqni qiynaydi. Nachora, “o'zingdan chiqqan baloga, qayga ham borarding davoga” deyishgan dono xalqimiz. Dushmanlarni-ku kuch bilan yengishimiz mumkin, lekin o'zimizdan chiqqan baloga yani dushmanga qanday chora qo'llashni bilmaysan kishi. Umar zakunchiga o'xshagan odamlar bor ekan, dushmanlarning ham keragi yo'qdir. Shunday qilib, O'tkir Hoshimov asarda tirli xil insonlarning turli xil qiyofalarini mahorat bilan ochib bergan. Va shu bilan birga kitobxonlarning insonlarga nisbatan qanday xulosaga kelishliklarida yirdam berdi. Ijodkorning bu asari butun xalqni yig'latdi. Ijodkorning bu asari butun xalqni titratdi. Bu kitobni o'qigan kitobxon yosh to'la ko'zlari ila o'qigani aniqdir. Qahramonlar yig'lasa, yig'ladi, kulsa kuldi, g'am cheksa g'am chekdi. Robiya yori Kimsanni xayoti-yu xayollarida ham kutishlarini bir esalang. O'sha sahifalarni o'qigan kitobxon Kimsanni Robiyadan ham ko'proq kutadi. Sahifalar davomida uning taqdiri yana uchrab qolishini orziqib kutadi. Ammo to'satdan Kimsanning o'limi uchrab qolishi onalar vujudini yondirdi, sevishgan qalblarni titratdi, yarador yuraklarni yig'latdi, mushtoq ko'zlarni so'ldirdi, qolaversa, barcha kitobxonlarni zir qaqshatdi. Ammo-lekin Kimsan kitobning bosh sahifalaridayoq ayanchlik o'lim topgani bilan kitobxon uni so'ngi o'qib tugatguncha kutti. Ammo kelmadi. Intizor ko'zlar yana namlandi. Shu jouda O'tkir Hoshimov asarining eng suyuki qahramonini o'ldirib qo'ygan edi. Asarni o'qigan kitobxon o'sha sahifalarni yig'lay-yig'lay o'qigandir, ammo ijodkorchi? U bu sahifalarni qanday yozdi ekan. Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” asarini yozayotgan kunlarning birida yozuvchining umr yo'ldoshi uyga kirsam, Qodiriy domla yig'lab o'tirganmish. Ayoli: “sizga nima bo'ldi?”, desa, Qodiriy: “Kumush o'lib qoldi”! degan ekan” [8]. O'tkir Hoshimov ham, balki, Kimsanjonni o'ldirib qo'yganida bundan ham battar ahvolga tushgandir. Chunki, ijodkorning qalbini tushinish uchun ijodkor bo'lib tug'ilish kerak.

Har bir vatanni, mustahkam vatan qilib turadiganlar ham siz-u bizga o'xshagan insonlar hisoblanadi. Kimsanjon qatori qanchadan-qancha insonlar urushda o'z jonlari evaziga vatanini, ota-onasini, qolaversa, butun xalqini yov degan ofatdan qutqarib qolishdi. Ular o'z jonlaridan vatan kelajagini qurdilar. Jonlarini bersa, berdilarki, ammo vatanlarini bermadilar. Ayniqsa, ijodkor o'sha voqealarni asarda shunchalik maromiga

yetqazib tasvirlab berganidan, o'sha jarayonda o'zimni bordek his ettim. Har tomomndan urush sadosi kelayotgandek, urushda qatnashib uning jabrini tortayotgandek edim. Ona kabi yig'ladik, ota kabi bo'zladik, vatan deb kurashsalar, bizlar ham kurashdik. Alqissa biz kitobxonlar, bu asarni o'qiyotganimizda yozishga qiynalib yozgan yozuvchi kabi, hayoti qiyinchiliklarga to'la qahramonlar kabi qiynaldik. Bunda ijodkorning kattagina mahoratga qo'l urgani sezilib turipti. Menimcha, O'tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”ni qalam bilan emas, alam bilan yozgandek edi. Bunaqangi ijod bilan adib, o'zbek xalqining qalbidan kattagina o'rinni egallab qo'ygan edi. Haqiqatan ham, bu badbaxt urush xalqlar boshiga juda katta kulfat slogan edi. Va yana “Qora amma” obrazida ijodkor millionlab beg'ibor onalarni farzandidan ayirdi. Millionlab go'daklarni yrtim qoldirdi. Millionlab insonlarni ota, aka, uka, va qolaversa, bolam degan nidolardan ayirdi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning to'rt qator she'ri ham qabih urushni qoralaydi.

Urush noming o'chsin jahondan

Hamon bitmas, sen slogan alam.

Sen tufayli ko'p xonadonda ,

Ota nomli buyuk shodlik kam.[9]

Insoniyat tarixidagi eng qonli urush 1939-yil 1-sentyabrdan 1945-yil 2-sentyabrgacha davom etti. Bu urush tugab ketgandan keyin ham o'zbek xalqi urushdan qaytmagan yaqinlarini kutaverishardi. Xa, bu urush ko'zlarni yo'llarga intizor qildi. Xa, bu urush insonlar qalbiga „sog'inch“ degan so'zni o'yib qo'ygan edi. Hattoki, urush tugagandan keyin ham bu so'z yuraklarda qolib ketti. Dunyo bo'yicha 60 mln, 70mlnga yaqin insonlar bu so'zning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan urushning qurboniga aylanishdi. Ular ichida „Ikki eshik orasi“dagi qahramonlar ham sanalgan, albatta. Fqatgina, asarda ularning ismlari o'zgargan bo'lishi mumkin. Ismlar o'zgargani bilan taqdirlar hayotta ham, kitobda ham bir xil edi. Bularning bariga yana urush sababchidir.

Ming lanatlar bo'lsin senga, ey “urush”! Qani edi, urush so'zi butun umr qo'shtirnoq ichida qolib ketsa. O'ylashingiz mumkin qo'shtirnoq oddiy belgi-ku deb, u nimani ham hal qilardi deb. Men buni kinoya qildim, shunchaki. Sababi, bu qo'shtirnoq insonning ma'lum qalbi yoki ongi, urush so'zi esa odamning qalbidagi “zaxar” yani turli xil “g'arazli niyatlar”I desa ham bo'ladi. Bu “zaxar” va g'arazli niyatlar hech qachon yuzaga cchiqmasligini istardim. Zeroki, katta-katta urushlar ham kichik-kichik “zaxar” ya'ni g'arazli niyatlardan paydo bo'ladi.

Urush insonlar hayotiga bamisoli bomba kabi kirdi. Bomba ma'lum bir yerni titratsa, urush butun bir inson qalbini titratdi. Bomba portlagan joyning izlari yillar mobaynida o'ziga kelsa ham ammo, urush slogan izlar yuraklarda abadul-abad qolib ketdi.

Men O'tkir Hoshimovning ushbu asarini sevib o'qidim, har qadamda unga talpinib o'qidim, kechalari qahramonlar hayotidan o'kinib uxladim, Ular haqida gapirganimda esa, qaddimni kerib gapirdim.

Aziz kitobxonlar!

O'tkir Hoshimov avlodlariga shunaqangi ibratomuz kitobni yozib qoldirgan ekan, barchamiz u insondan minnatdor bo'lishimiz kerak. Garchi u inson hozir hayot bo'lmasalar-da.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. info @uzreport.news.
- 2,3,4,5,6,7. “Ikki eshik orasi” O'tkir Hoshimov.-Toshkent: Yangi asr avlodi 2016.
8. SAVIYA.UZ. “Cho'l havosi”dan “Ikki eshik orasi”gacha.
9. Korzinka.-O'g'lim sira bo'lmaydi urush. m.facebook.com.